

# Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25<sup>th</sup> May - 2024

ISSN: 2835-396X

Website: [econferenceseries.com](http://econferenceseries.com)

## ESHITISHIDA MUAMMOLARI BO‘LGAN BOLALAR TA’LIM- TARBIYASINING UMUMIY MUAMMOLARI

J. M. Atamuratova

Nizomiy nomidagi TDPU ning

Surdopedagogika va inkyuziv talim kafedراسi oqtuvchisi

### Annotatsiya:

Eshitishida nuqsoni bor bolalarda reabilitatsiyaning ilk bosqichlarida korreksion pedagogik ishlari haqida yoritilgan. Xususan ta’lim tarbiya jarayoni va bosqichlari haqida va uni korreksiyalash masalalari ochib berilgan.

**Kalit so‘zlar:** reabilitatsiya, kompensatsion, adaptatsion, tarbiya.

### Аннотация:

на ранних этапах реабилитации у детей с нарушениями слуха освещена коррекционная педагогическая работа. В частности, раскрывается вопрос о процессе и этапах воспитания и вопросах его коррекции.

**Ключевые слова:** реабилитационный, компенсационный, адаптивный, воспитание.

### Abstract:

Correctional pedagogical work is highlighted in the early stages of rehabilitation in children with hearing impairments. In particular, the question of the process and stages of education and issues of its correction is revealed.

**Keywords:** rehabilitation, compensatory, adaptive, educational.

O‘zbekiston Respublikasida eshitishida nuqsoni bor bolalar ta’lim-tarbiyasiga, oilasiga e’tibor pedagogik yondashuvlar mutloq o‘zgarib bormoqda. Maktabgacha yoshdagi va maktab yoshidagi kar va eshituvchi o‘quvchilarning hamkorlikdagi ta’limi birinchi o‘ringa chiqib ular uchun imkoniyatlar kuchaymoqda. Yurtimiz qudrati, jamiyat ravnaqi kelajagimiz egalari bo‘lgan bolalarning jismoniy hamda ma’naviy jihatdan sog‘lomligiga bog‘liqdir. Mamlakatimizda har tomonlama sog‘lom



# Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25<sup>th</sup> May - 2024

ISSN: 2835-396X

Website: [econferenceseries.com](http://econferenceseries.com)

avlodni voyaga etkazish borasidagi ishlarni izchil davom ettirish va yuksak bosqichga ko'tarish maqsadida qator islohotlar amalga oshirib kelinmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 21 dekabr kuni "Nogironligi bo'lgan shaxslarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning bandligiga ko'maklashish hamda ijtimoiy faolligini yanada oshirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorni imzoladi.

Shu sababli eshitishida nuqsoni bor bolalar eshitishini tiklash orqali nutqini erta korrektsiyalash ularni ijtimoiy hayotga erta moslashtirish omili sanaladi ularni jamiyatga qo'shilishi atrofda gilarida iymanish hissini yuqotish . Respublikamizda hozirgacha eshitishida muammosi bo'lgan bolalar haqida to'liq ma'lumotlar zaxirasi yaratilmagan bu muammo ota onalarning bolalarini uy ta'limiga qo'yib qo'yishlari sabab . Ushbu yo'nalishda ilk va erta tashxis qilishning etarli darajada yo'lga qo'yilmaganligi, koxlear implantasiya qilingan bolalarning ta'lim muassasalarida muvaffaqiyatli uyg'unlashib ketishlariga xizmat qiluvchi korrektsion-pedagogik ishlarning respublikamiz shart-sharoitlardan kelib chiqqan holda ilmiy-nazariy jihatdan asoslab berilmaganligi, metodik yo'l-yo'riqlarning ishlab chiqilmaganligi, bunday ish tizimi bilan tanish bo'lgan surdopedagoglarning etishmasligi olib borilayotgan ishlarda biroz qiyinchiliklar yuzaga keltirayapganini ta'kidlash lozim. Tariuxga nazar soladigan bo'lsak olimlar juda kop izlanishla qilishgan va koiplab muommolar yechimini topishgan. Zamonaviy maxsus ta'lim tizimining nazariy asoschisi L.S.Vigotskiy eshitishning buzilishi oqibatida yuzaga kelgan soqovlik – insoniy nutqning mavjud bo'lmasligini keltirib chiqarsa, o'z navbatida, nutqni egallay olmaslik umumiy madaniy rivojlanishga katta salbiy ta'sir ko'rsatishini alohida qayd etadi.

Eshitishida muammosi bo'lgan bolalarni atroflicha o'rgangan R.M.Boskis eshitish analizatori funksiyasining nisbatan oz buzilishi – shivirlashni idrok etish imkoniyatining chegaralanishi ham bola nutqining me'yorda rivojlanishiga, buning oqibatida mantiqiy tafakkurining shakllanishiga to'sqinlik qilishini ko'rsatib o'tadi. Zamonaviy surdopedagogika sohasidagi qator yutuqlar so'nggi yillarda E.I.Leongard, E.G.Samsonova (1991), N.D.Shmatko, T.V.Pelinskaya (2003), I.V.Koroleva, V.I.Pudov, O.V.Zontova (2001), A.D.Salaxova, N.V.Kochegarova (2001), V.N.Svodina (1998) kabi etuk olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqot ishlari bilan bog'liq Ularning tibbiyot hamda pedagogika sohasidagi yutuqlardan keng foydalangan holda olib borildi . Eshitish nuqsonlariga ega bo'lgan bolalar



# Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25<sup>th</sup> May - 2024

ISSN: 2835-396X

Website: [econferenceseries.com](http://econferenceseries.com)

alohida yordamga muhtoj bolalar toifasiga kiradi, chunki bu nuqson bolaning umuman rivojlanib, kamol topib borishiga, dastur materiallarini o'zlashtirishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Karlik – eshitishning mutlaqo yo'qligi (mutlaqo eshitmaslik) yoki pasayishining shunday shakli, unda og'zaki nutq faqat qisman, eshitish apparatlari (moslamalari) yordamida idrok etiladi.

Zaif eshitish – har ikkala quloq bilan eshitishning pasayishi, unda nutqni idrok etishda qiyinchiliklar yuzaga keladi, biroq ovoz kuchaytirilganda uni idrok etish mumkin bo'ladi.

Kech kar bo'lganlar - nutqni egallaganidan keyin, ya'ni 2-3 yoshda qandaydir kasallik yoki jarohat oqibatida eshitish qobiliyatini yo'qotgan bolalar. Bunday bolalarda eshitish qobiliyatining yo'qotilishi turlicha: total, yoki karlikka yaqin, yoki zaif eshitadigan bolalarda kuzatiladiganiga yaqin bo'ladi. Bolalarda ko'plab tovushlarni eshitmagani yoki buzuv holda eshitgani, ularga nima deyishganini tushunmaganligiga og'ir psixik reaksiya paydo bo'lishi mumkin. Ba'zan bu bolaning har qanday muloqotdan to'liq bosh tortishiga, hatto psixik (ruhiy) kasallikka olib keladi. Muammo bolani og'zaki nutqni qabul qilish va tushunishga o'rgatishdan iborat. Agar bolada yetarli qoldiqli eshitish bo'lsa, bunga eshitish apparati (qurilmasi) yordamida erishiladi. Qoldiqli eshitish kam bo'lsa, nutqni eshitish apparati va so'zlovchining «labidan» o'qish yordamida qabul qilish majburiy bo'ladi. Total (butunlay) kar bolalarda daktilologiya, yozma nutq, va ehtimol karlarning imo-ishora nutqidan foydalanish lozim bo'ladi. Keyin kar bo'lgan bolani o'qitish va tarbiyalash uchun qulay sharoitlar jamlanganda, uning nutqi, bilish va irodaviy jarayonlari rivojlanishi normal bolanikiga yaqinlashadi. Biroq emotsional soha, shaxsiy sifatlar va shaxslararo munosabatlar shakllanishidagi o'ziga xoslik juda kam hollarda bartaraf qilinadi.

## Xulosa:

Xulosa qilib shuni aytish, mumkinki, eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarni eshitishini tiklash orqali nutqini erta korrektsiyalash ularni ijtimoiy hayotga erta moslashtirish omili sanaladi ularni jamiyatga qo'shilishi atrofdagilarda iymonish hissini yuqotish va ularni tarbiyasi bilan shugillanish pedagogik togri yondashish Shu sababli eshitishida nuqsoni bor bolalar eshitishini tiklash orqali nutqini erta



# Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25<sup>th</sup> May - 2024

ISSN: 2835-396X

Website: [econferenceseries.com](http://econferenceseries.com)

korrektsiyalash ularni ijtimoiy hayotga erta moslashtirish omili sanaladi ularni jamiyatga qo'shilishi atrofda gilar da iymanish hissini yuqotish.

## Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Таълим тўғрисидаги Қонун. ЎРҚ-637-сон. 2020-йил 23-сентябрь. <https://lex.uz/>
2. O'zbekiston Respublikasining 2019 yil 16 dekabrda qabul qilingan —Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida Qonuni, O'RQ-595-son <https://lex.uz/>
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги —Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар Стратегияси тўғрисидаги ПФ-4947-сон Фармони //Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2017 й., 6-сон, 70-модда
4. Bazoev V. Z., kuygan V. A. sukunat dunyosidan kelgan odam.- M.: Akademkitobi, 2002 Yil. 815 s.
5. Bayborodova L. V., Rojkov M. I. zamonaviy maktabdagi o'quv jarayoni. [Matn] Yaroslavl, 1997 380S.
6. Bogdanova T. G. " Surdopsixologiya: Darslik.nafaqa. M.: Akademiya, 2002.

